

**“BOSHLANG'ICH SINFLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA
O'QISH VA YOZISH KO'NIKMALARINI MUSTAQIL TA'LIM ORQALI
RIVOJLANTIRISH”**

Ne'matova Nigora Soliddin qizi

Samarqand Davlat Chet tillar institute 2 bosqich tayanch doktoranti

Anatatsiya: Mazkur maqola boshlang'ich sinflarda bolalarga ingliz tili o'qitishda o'qish va yozish ko'nikmalarini mustaqil ta'lim orqali rivojlantirish haqida atroflicha yoritilgan. Ushbu maqolada bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish usullari bilan tanishishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Lingvistik kapital, muvaffaqiyat, KYO, kommunikativ, metod, integrativ rivojlanish, pedagogik tamoyillarni, kompetensiya.

Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 60 foizi ikki yoki undan ortiq tillarda so'zlasha olishi barchaga ma'lum. Jahonda globallashtirish jarayonlarini tezlashtirish, erkin bozor munosabatlariga o'tish va ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etishning rag'batlantirilishi «lingvistik kapital»ga, ya'ni chet tillarni (ayniqsa, ingliz tilini) mukammal egallagan mutaxassislariga ehtiyojni kuchaytirmoqda Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab keyinchalik institutlarda, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganadilar.

Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Shuningdek aynan mamlakatimizda xorijiy tillarni maktabda juqur egallashga qaratilgan chora tadbirlarqo'llanilib kelinmoqda. Shunisi ma'lumki bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid

qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6-7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli.

Bilamizki, bolalar qiziquvchan. Ular bir xillikdan tez zerikadi. Shuning uchun ularga har doim bir turdagi usullardan foydalanib dars o'tish emas, balki bunday usullarni o'zgartirib, yangilab dars o'tish lozim. Aks holda bolalar o'qituvchining qanday dars o'tishini fahmlab olishadi va bunga tayyorgarlik ko'rishadi. Usullarni yangilab dars o'tish bolalarning intilishlarini oshiradi.

Ingliz tili o'qitishga KYO 1960-yildan buyon rivojlanib kelayotgan kommunikativ metod asosida shakllantirilgan. Amerikalik va britaniyalik mutaxassislar ingliz tilini kommunikativ o'qitish metod emas, balki yondashuv sifatida e'tirof etgan holda kommunikativ kompetensiya til o'qitish maqsadi bo'lishi lozimligini, til va kommunikatsiya o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlash uchun barcha nutq faoliyat turlaridan bilim, malaka va ko'nikmalarni integrativ rivojlantirish zarurligini targ'ib eta boshladilar.

Fikrimizni isbotlash uchun KYO ning lingvistik asoslarini ko'rib chiqamiz. Boshlang'ich ta'limda ingliz tili o'qitishga kommunikativ yondashuvning lingvistik asoslari:- KYO ning lingvistik asoslari: Ingliz tili o'qitishda kommunikativ yondashuv A.N.Xomskiy va D.Xaymslar tomonidan lingvistik diskursga kiritilgan kommunikativ kompetensiya atamasi va uning zamirida rivojlantirilgan til kommunikatsiya vositasidir, degan mazmundagi nazariya asosida rivojlantirilgan . KK atamasi ikki so'zdan iborat bo'lib, kommunikatsiya – fikr yoki axborot almashish; kompetensiya – biror soha yoki masaladan yaxshi xabardorlik va ushbu sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritilishini ta'minlaydigan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar majmuyini anglatadi. Kompetensiya atamasi shaxsni ma'lum sohada

faoliyat yurita olishga qodir etuvchi fazilatlari, sifatlari va xos xususiyatlarini anglatadi.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishning pedagogik tamoyillari o'zbek va rus tilidagi ilmiy manbalarda dadidaktik tamoyil sifatida mufassal bayon etilgan. Lekin xorijiy adabiyotlarda pedagogik tamoyil alohida tadqiq etiladi. Biz pedagogik tamoyillarni umumlashtirishda uch tildagi ilmiy manbalardan foydalandik.

1. O'sib kelayotgan avlodni har tomonlama kamolotga yetkazish. Ingliz tili vositasida o'zlashtiriladigan axborot va ingliz tili o'rganish mobaynida olinadigan aqliy va nutqiy ko'nikma hamda malakalar o'quvchilarni tarbiyalaydi.

2. O'quvchilarni o'rganilayotgan tildan foydalanishga rag'batlantirish.

3. O'quvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olish.

4. O'quvchilarni atrofdagilarga nisbatan bag'rikenglik va turli qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash.

5. Darslarda bilimlarning mustaqil fahmlab o'rganilishi uchun optimal vaziyat yaratish.

Ingliz tili o'qitishning suniy ta'lim sharoitida o'quvchilarda ingliz tilida fikr shakllantirish va ifodalash usuli sifatida nutqni rivojlantirish katta qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Chunki fikrni shakllantirish ichki planda ona tilida sodir bo'ladi, ifodalash esa tashqi planda ingliz tilda amalga oshiriladi. Agar ingliz tili o'rganish jarayonida o'quvchi doimiy ravishda ona til kodini ingliz tili kodiga tarjima qilaversa u til vositalarini o'rganadi, ingliz tilida fikr ifodalash usulini emas.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun chet tildan muloqot vositasi sifatida foydalanishga ehtiyojni vujudga keltiradigan shaxsiy sabablarni (maktab xududida belgi, ko'rsatkich, e'lon va shiorlarni ikki tilda o'rnatish, o'zaro chet tilda yozishmalar tashkil etish, o'rganilayotgan chet tildagi multfilm va badiiy filmlar namoyish etish) hosil qilish va o'quvchilarning ingliz tili o'rganishga ishtiyoqini kuchaytiradigan tadbirlar (o'rganilayotgan chet tilda shaxsning kommunikativ faoliyatga yo'naltirilgan rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari va tanlovlar) o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Maqaolamiz so'ngida xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til

o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bimalol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm- fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1. Cambridge English Language Assessment: Young Learners, Handbook for teachers Starters Movers Flyers. - Cambridge University Press, 2018. – 70 p.*
- 2. Pinter A. Children learning second languages. Research and practice in Applied Linguistics. – UK.: Palgrave & Macmillan, 2011. – 308 p.*
- 3. Pinter A. Teaching Young Language learners. – UK.: Palgrave & Macmillan, 2006. – 205 p*
- 4. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999.– 352 с.*
- 5. Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. – М.: Римис, 2008. – 416 с.*
- 6. Эльконин Д.Б. Психология развития. – М.: Академия, 2007. – 144 с.*